

TERMIZ UNIVERSITETI

Ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-badiiy gazeta

BESHIK DAN QABRGACHA ILM IZLA!

1990-yil may oyidan chop etila boshlagan



№15(369)-son, 2024-yil 18-noyabr, dushanba



QR kodni skaner qilib,
TerDU web-sahifasiga o'ting!



**18-noyabr-O'zbekiston
Respublikasi bayrog'i
qabul qilingan kun**



**Xushxabar
InnoWeek2024**

TALABAMIZ SOVRINDOR!

**InnoWeek – 2024 xalqaro innovatsion g'oyalar
haftaligi doirasida o'tkazilgan "Innovatsion
g'oyalar yetakchisi" tanlovi g'oliblari sharaflandi.**

Tantanali marosimida
Termiz davlat universiteti
Tabiiy fanlar fakulteti
talabasi SHERALI XOLMAMATOV
"Innovatsion g'oya
yetakchisi" ko'krak nishoni
bilan taqdirlandi.

Sovrindorlar ko'krak
nishoni, statuetka va 7,5
million so'm miqdoridagi pul
mukofoti bilan
rag'batlantirildi.

TerDU Matbuot xizmati.

Hamkorlik ufqlari

**Termiz davlat
universiteti rektori
A.Toshqulov
boshchiligidagi
delegatsiya Malayziya
davlatida bo'lib,
mamlakatning yetakchi
universitetlaridan biri
Utara universiteti rektori
bilan uchrashuv o'tkazdi.**

Uchrashuvda tomonlar
talaba va o'qituvchilarning
zamonaviy bilim va
ko'nikmalarini egallashlarini
ko'zda tutuvchi qisqa
muddatli o'quv kurslarini
tashkil etish bo'yicha
muzokaralar olib borishdi.

Muzokaralar jarayonida
hamkor universitetning o'quv
jarayonlari, metodologiyasi
bilan tanishish va xalqaro
reytinglarga kirish tajribasini
o'rganish maqsadida TerDU
professor-o'qituvchilari va
xodimlarining Utara
universitetidagi kasbiy
rivojlanish dasturlarida
ishtirok etishlari bo'yicha
kelishib olindi.

Universitetimiz rahbariyati
tomonidan Malayziyaning
Utara universiteti bilan
qo'shma ta'lim dasturi
bo'yicha ham manfaatli
kelishuvlarga erishildi.

Qo'shma ta'lim dasturiga
asosan ta'lim jarayonlari
"3+5" shaklida tashkil etiladi.



MALAYZIYA ESHIKLARI OCHIQ

2025-2026 o'quv yilidan
boshlab iqtisod yo'nalishi
bo'yicha o'qishga qabul
qilingan talabalar 3 semestr
davomida TerDUda va 5
semestr davomida
Malayziyaning Utara
universitetida tahsil olishadi.

O'qishni muvaffaqiyatli
yakunlagan talabalar ikki
universitet diplomlariga ega
bo'lishadi.

Shuningdek, Malayziya
safari chog'ida TerDU rektori
Perlis universiteti va Perlis
shtatining Valiahd shahzodasi

bilan ham uchrashib,
muzokaralar olib bordi.

Muzokaralardan so'ng
mas'ullar axborot
texnologiyalari bo'yicha
hamkorlikdagi loyihalarni
amalga oshirish, ilmiy-
tadqiqot ishlari ko'lamini
kengaytirish, o'qituvchilar
malakasini oshirish va
qo'shma ta'lim dasturlarini
tashkil etishdek ustuvor
masalalarni o'z ichiga olgan
shartnoma imzolashdi.

**G'afur TOG'AYEV,
Xalqaro aloqalar
bo'yicha prorektor.**

BAXSHI

IJOD SEHRI

**(Ijod
gulshani)**

Termiz davlat universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti Boshlang'ich
ta'lim kafedrasida dotsenti, taniqli olim, filologiya fanlari nomzodi
Ro'ziqul Mustafokulov qariyb ellik yillik ilmiy-pedagogik faoliyati
barobarida mohir senariynavis o'laroq badiiy ijod bilan ham
shug'ullanib kelmoqda. "Qirq qiz" (hujjatli film), "Alpomish yurtga
qaytdi", "Alpning tug'ilishi" kabi senariylari asosida hujjatli filmlar
suratga olingan. E'tiboringizga havola etilayotgan "Baxshi" nomli
dramatik asarni muallif ilk bor bizning nashrimizda chop etilishini
ma'qul ko'rdi. Ulug' baxshilar sulolasi peshvosi – Safar baxshining
murakkab taqdiri mahorat bilan ifoda etilgan asar hayotiy voqealarga
asoslangan.

(Davomi 6-sahifada)



TAHRIRIYAT

**"BESH
TASHABBUS
OLIMPIADASI"**



**Talabalar
bekati**



Yuzochar

TERDUDA "YOSHLAR MARKAZI" FAOLIYAT BOSHLADI

**BMT taraqqiyot dasturi loyihasi doirasida Termiz davlat
universiteti qoshida tashkil etilgan markazning ochilish marosimi
bayramona ko'rinish kasb etdi.**

Unda
Surxondaryo viloyati
hokimligi vakillari,
Yaponiyaning
O'zbekistondagi
elchisi, BMT
taraqqiyot dasturi
mas'ullari TerDU
rektori, professor-
o'qituvchilari va
talaba-yoshlar
ishtirok etishdi.

BMTning
taraqqiyot dasturi
dunyoning 170 ta
davlatida o'z
faoliyatini yo'lga
qo'ygan. Shu jumladan yurtimizda ham. Hozirda O'zbekistondagi
vakolatxonasi 40 dan ortiq loyihalar bilan ishlamoqda. Dastur doirasida
Yaponiya hukumati mablag'lari asosida Markaziy Osiyoda zo'ravonlik,
eksteremizmning oldini olish uchun jamiyatlarda barqarorlikni rag'batlantirish
loyihasi e'lon qilindi.

(Davomi 4-sahifada)



MEMORANDUM IMZOLANDI

Termiz davlat universiteti va O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi Surxondaryo viloyat bo'limi o'rtasida memorandum imzolandi.

Joriy o'quv yildan Termiz davlat universitetida Jurnalistika yo'nalishining ochilishi voha ilm ahli uchun katta yangilik bo'ldi. Endilikda mazkur ta'lim dargohida nazariy bilimlarni o'zlashtirayotgan talabalarga ommaviy axborot vositalari bilan aloqalarini yo'lga qo'yish, tahririyatlarda tajriba orttirish imkoniyati paydo bo'lmoqda.

Termiz davlat universiteti va O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi Surxondaryo viloyat bo'limi o'rtasida imzolangan memorandumda ham ana shunday istiqbolli, egzu maqsadlar



aks etgan.

O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi Surxondaryo viloyat bo'limi.

VILOYAT HOKIMI TOPSHIRIG'I IJROSI

Oltinsoy tumanida bo'lgan viloyat hokimining ko'rsatmasiga asosan, tumandagi ko'rsatkichlari past bo'lgan umumiy o'rta ta'lim maktablardan 15 tasi Termiz davlat universitetiga biriktirilgan edi.

darajagacha ko'tarish, bitiruvchilarni oliy ta'limga qamrovini ko'paytirish, o'quvchilarning salohiyatidan kelib chiqib fan olimpiadalarga ishtirokini ta'minlash, o'quvchilar ishtirokidagi



O'tgan davr mobaynida universitetning professor-o'qituvchilari tomonidan maktablarda tahliliy o'rganish ishlari olib borildi.

Tahliliy ma'lumot natijasida: maktab o'qituvchilarining toifa ko'rsatkichlarini oliy

jinoyatchilikni oldini olish, fan to'garaklarini tashkil etish va kasbga yo'naltirish bo'yicha ilmiy metodik tavsiyalar berilib texnik bazasini mustahkamlash choralari ko'rilmogda.

O'z muxbirimiz.

KENG IMKONIYATLAR KALITI

Termiz davlat universiteti rektori huzurida Milliy libos va san'at fakulteti mas'ullari hamda faxriy ustozlar ishtirokida uchrashuv bo'lib o'tdi.

Unda universitetning mavjud san'at sohasidagi akademik salohiyatidan samarali foydalangan holda respublika va viloyat miqyosidagi ommaviy tadbirlar, anjumanlarni yuqori saviyada

tashkil etish, bu jarayonda zarur bo'ladigan moddiy texnik bazani shakllantirish hamda TerDU qoshidagi "Jayhun" ansamblining imkoniyatlarini kengaytirish masalalari ko'rib chiqildi.

E'tirof etilganidek, konferensiyalardan tortib, yirik ommaviy bayram tadbirlarida milliylik va bag'rikenglik shukhi aks etishi lozim. Samimiy muloqotlarda TerDU rektori madaniyat, san'at va sportni qo'llab-quvvatlashga doim tayyorligini ta'kidladi.

REKTOR – XORIJIY FILOLOGIYA FAKULTETIDA

Fakultetning pedagoglar jamoasi bilan bo'lgan uchrashuvda avvalo ilmiy salohiyatni oshirish, xalqaro aloqalar ko'lamini kengaytirish masalalari muhokama etildi. O'qituvchilar tomonidan o'rta tashlangan qator taklif va tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash choralari ko'rildi.



Rektor universitetning xalqaro reyting ko'rsatkichlarini yaxshilash borasidagi vazifalar xususida to'xtalib, rejadagi xalqaro hamkorlik kelishuvlari bo'yicha ma'lumotlar berdi.

Muloqotlarda ish samaradorligini oshirish, talabalar almashinuvi, qo'shma ta'lim dasturlari imkoniyatlaridan unumli foydalanish bo'yicha tavsiyalar berildi.

ISHONCH HOSIL QILINDI

A.Toshqulov TTJda kuz-qish mavsumiga ko'rilgan tayyorgarlik holatini ko'zdan kechirib, aniqlangan kamchiliklarni qisqa muddatlarda bartaraf etish bo'yicha ko'rsatmalar berdi.

Shuningdek, talabalarning dars qilishlari, kutubxona, oshxona, sport, tikuv xonalaridan foydalanishlari uchun yaratilgan shart-sharoitlarni o'rgandi. Jarayonda sport anjomlari ta'minotiga mas'uliyatsizlik bilan yondashgan mutasaddilarga ta'sir choralari belgilandi.

Universitetning "Qalqon" guruhi a'zolari bilan ham uchrashib, ularning vazifalari, harakat yo'nalishlari bo'yicha ham tavsiyalar berdi.

TerDUda rektor rahbarligida kengaytirilgan apparat yig'ilishi o'tkazildi.

APPARAT YIG'ILISHIDAN LAVHA

Universitet prorektorlari, fakultetlar dekani va kafedralar mudirlari ishtirok etgan yig'ilishni A.Toshqulov boshqarib bordi.

Yig'ilishda o'quv, ilmiy, ma'naviy-ma'rifiy hamda xalqaro hamkorlik sohasidagi ishlar va ko'rsatkichlarning ayni holati muhokama etildi.

DISSERTATSIYALAR Olimlar safida MUVAFFAQIYATLI HIMOYA QILINDI!

Termiz davlat universiteti rahbariyati va jamoasi ilmiy daraja olish uchun yozilgan dissertatsiya ishini muvaffaqiyatli himoya qilgan quyidagi professor-o'qituvchilarni samimiy qutlaydi:




Shaymardanova Aziza Raimjanovna (O'zbek tili va adabiyoti kafedrası) 10.00.01 – O'zbek tili ixtisosligidan "O'zbek tili ichki lakunalarining lingvistik tadqiqi" mavzusidagi filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Sharafutdinova Xadichaxon Gulyamutdinovna (Psixologiya kafedrası mudiri) 19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya ixtisosligidan "Oilaviy munosabatlar destruksiyasida konginitiv psixoterapiyani qo'llash amaliyoti (yosh va o'rta yosh oilalar misolida)" mavzusida psixologiya fanlari doktori (DSc);



Yodgorov Shamsiddin Abduraimovich (TerDU tayanch doktoranti) 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik ixtisosligidan "Qur'oni Karimning inglizcha tarjimalarida adekvatlik muammosining lingvokognitiv tadqiqi" mavzusidagi filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);



Jo'rayev Olim Albayevich (TerDU tayanch doktoranti) 08.00.06 – Ekonometrika va statistika ixtisosligidan "Meva-sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarish jarayonlarining statistik tadqiqoti (Surxondaryo viloyati misolida)" mavzusidagi iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);



Rahimova Zebiniso Shomansur qizi (TerDU tayanch doktoranti) 10.00.01 – O'zbek tili ixtisosligidan "O'zbek tilida jargonlarning lingvopragmatik tadqiqi" mavzusidagi filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

Jarayon

REGISTRATOR OFIS TAKOMILI YO'LIDA

TerDU prorektori R.To'rayev o'quv jarayoniga mas'ul fakultetlar dekani o'rinbosarlari va registrator ofis xodimlari ishtirokida yig'ilish o'tkazdi.

Unda universitetda o'quv jarayonini tizimli va samarali tashkil etish, talabalarga sifatli va raqamli xizmat ko'rsatish, ularning murojaatlarini tinglash hamda kerakli tavsiya va tushunchalar berish kun tartibining asosiy masalalari etib belgilandi.

Shuningdek, mas'ullarga xorijiy oliy ta'lim muassasalarining Registrator ofis xizmatlari bilan tanishish va uni universitetda qo'llash bo'yicha takliflar ishlab chiqish, talabalarga ko'rsatiladigan xizmat turlarini sifatli va samarali tashkil etish bo'yicha bir nechta topshiriq va vazifalar berildi.

Konferensiya

UZLUKSIZ TA'LIM – SAMARALI YECHIM

Termiz davlat universiteti “Uzluksiz ta'lim tizimining ustuvor vazifalari: muammolar, yechimlar va istiqbollar” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasiga mezbonlik qildi.

Termiz davlat universitetining 70 yillik yubileyini keng nishonlash, shuningdek, uzluksiz ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan kelib chiqib mavjud muammolarni belgilash, ularning yechimlari va istiqbolda rivojlanish tendensiyalarini aniqlashtirishga yo'naltirilgan konferensiya onlayn va oflayn formatda tashkil etildi.



Unda viloyatimizdagi OTM vakillaridan tashqari Toshkent davlat pedagogika universiteti, Buxoro davlat universiteti, Rossiya Federatsiyasi Adigey davlat universitetining professor-o'qituvchilari ishtirok etishdi. Qatnashchilar yalpi majlisdan so'ng 5 ta yo'nalish bo'yicha sho'balarga bo'lingan holda ma'ruzalar qilishdi.

Xushxabar

TALABAMIZ – G'OLIB!

Buxoro shahri mezbonlik qilgan Yunon-Rum kurashi bo'yicha O'zbekiston chempionatida TerDU talabalari munosib ishtirok etishdi.

Yoshlar o'rtasidagi ayollar bellashuvlarida 70 kg. vaznda Termiz davlat universiteti Sport faoliyati va boshqaruv fakulteti talabasi Saodat To'rayeva birinchi o'rinni egalladi.

Saodatxonni ushbu yutug'i bilan tabriklaymiz!



IDROK BAHSI



“Kasaba uyushmalar kuni” munosabati bilan Termiz davlat universiteti kasaba uyushmasi hamda Yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti tashabbusi bilan oliygohning professor-o'qituvchilari hamda

Zakovat

talaba yoshlari o'rtasida katta qiziqish bilan kuzatiladigan va intellektual salohiyatni sinovdan o'tkazadigan “Zakovat” musobaqasi bo'lib o'tdi.

Musobaqada tarix, fan, san'at, sport va boshqa sohalarga oid qiziqarli savollarga javob berish orqali ishtirokchilar o'zlarining bilimlarini namoyish etdilar. Shu bilan birga, qatnashchilar o'z bilim doiralarini kengaytirish va yangi bilimlarni o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

Natijalarga ko'ra, g'oliblik:

- 1-o'rin – Yuridik fakulteti jamoasi,
- 2-o'rin – Tarix fakulteti jamoasi,
- 3-o'rin – Xorijiy filologiya fakulteti

jamoasiga nasib etdi.

Musobaqa nihoyasida g'olib jamoalar diplom hamda esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

PROFILAKTIKA – MUHIM!

TerDuda favqulodda vaziyatlarning oldini olish bo'yicha maxsus taktik o'quv mashqi o'tkazildi.

Kuz-qish mavsumini talafotlarsiz o'tkazish, talaba-yoshlar o'rtasida is gazidan zaharlanish hamda havo-gaz aralashmasi chaqnashi bilan bog'liq ko'ngilsiz hodisalarning oldini olishda fuqarolarning texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarga oid savodxonligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Profilaktik tadbirda mutaxassislar ishtirokchilarga is gazidan zaharlanishning oldini olish va qo'lbola isitish moslamalaridan noqonuniy foydalanishning salbiy ta'sirlari bo'yicha zaruriy ko'rsatmalar ham berishdi.

O'z muxbirimiz.

Ehtiyot shart!



“TALABA, YUGUR!”



Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Sport vazirligi, Yengil atletika federatsiyasi, “Uzinfocom” MChJ, Talabalar sporti assotsiatsiyasi bilan birgalikda “Talaba-yoshlarni sog'lom hayotga targ'ib qilish, ularni doimiy sport bilan shug'ullanishi uchun “Talaba, yugur!” ko'ngillilar yugurish sport musobaqasi o'tkazildi.

Musobaqa

2024-2025 o'quv yilidan boshlab har yili uzluksiz ravishda oliy ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida “Talaba, yugur!” ko'ngillilar yugurish musobaqalari tashkil etilishi belgilangan edi.

Yugurish musobaqasi bir yilda ikki marta – “Kuzgi” (oktabr-noyabr oylarida) hamda “Bahorgi” (mart-may oylarida) mavsum doirasida bo'lib o'tishi rejalashtirilgan.

Shu munosabat bilan viloyatimiz markazida ushbu tadbir yuqori saviyada tashkil etildi. Unda Termiz davlat universitetidan ham 300 nafar talaba-yoshlar ishtirok etishdi.

Musobaqani tashkil etish va yugurish natijalarini qayd etish jarayoni O'zbekiston yengil atletika Federatsiyasining “Yugur” (yugur.uz) elektron platformasi orqali amalga oshirildi.

TERDUDA “YOSHLAR MARKAZI” FAOLIYAT BOSHLAGI

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada)

Ushbu loyihada ishtirok etgan Termiz davlat universiteti professor-o'qituvchilarining takliflari qo'llab-quvvatlanib, qiymati sakson ming AQSH dollariga teng loyiha hayotga tatbiq etildi.

Shu boisdan uning rasman ish boshlashiga bag'ishlangan tadbir Kunchiqar mamlakatning yurtimizdagi elchisi boshchiligidagi



mas'ullar ishtirok etishdi.

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston – Yaponiya o'rtasidagi hamkorlik munosabatlari tarixan uzoq o'tmishga borib taqaladi. Madaniyat va san'at, iqtisod va ta'lim sohasidagi aloqalar hozirgi kunga qadar rivojlanib

kelmoqda.

Tadbir so'z olganlar bu jihatlarni yana bir bor e'tirof etishdi. Shundan so'ng ramziy tasmalar kesilib, ishtirokchilar markazda yaratilgan shart-sharoitlar bilan yaqindan tanishishdi.

– Ushbu loyihaga kiritilgan Termiz davlat universiteti huzuridagi yuridik klinika rasman o'z faoliyatini boshladi. bu yerda barcha huquqiy masalalarda bepul huquqiy yordam berib boriladi. Shuningdek,



markazda IT xonasi ham faoliyat boshladi. Istiqbolda IT sohasiga qiziquvchi barcha professor-o'qituvchilar va talaba yoshlar ushbu xonadan foydalanib, o'z bilimlarini mustahkamlab borishlari mumkin, – deydi Yuridik fakulteti



klinika va multimedia xonalari zamonaviy qulay mebel jihozlari, elektron va boshqa qurilmalar bilan ta'minlangan.

Loyihaning ikkinchi qismi doirasida Surxondaryo viloyatidagi yoshlarni kasb-hunarga o'rgatish hamda ularning bandligini oshirish maqsadida tematik treninglar va seminarlar tashkil etish orqali yoshlarning chet tillarini bilish darajasini oshirish, yuridik klinika faoliyati orqali ularga bepul huquqiy maslahatlar berish, biznes trenerlarni jalb qilgan holda ularni o'qitish va o'zlarining startap loyihalarini boshlab olishlariga ko'maklashish ko'zda tutilmoqda.

Izzatullo TOLPOV,
TerDU Yoshlar ittifoqi
boshlang'ich tashkilot
yetakchisi.

dekani Mirzohid Po'latov.

Markaz universitet qoshida alohida kompleks sifatida tashkil etilgan bo'lib, ingliz tilida turli xil mavzularda munozaralar o'tkazish, kitob mutolaa qilish hamda kompyuter laboratoriyasi, yuridik

“BESH TASHABBUS OLIMPIADASI”



TerDuda “Besh tashabbus olimpiadasi” sport musobaqalarining ikkinchi fakultetlararo bosqichi yakunlandi.

Musobaqalar: yengil atletika, stol tennisi, stritbol, mini futbol hamda voleybol turlari bo'yicha o'tkazildi. Kuni kecha ikkinchi bosqich voleybol musobaqalari yakunlandi.

Unga ko'ra;

Voleybol (o'g'il bolalar o'rtasida)

1. Sport faoliyati va boshqaruv fakulteti
2. Fizika-matematika fakulteti
3. Yuridik fakulteti

Voleybol (qizlar o'rtasida)

1. Sport faoliyati va boshqaruv fakulteti
 2. Kimyo fakulteti
 3. Fizika-matematika fakulteti
- talabalar shohsupalarga ko'tarildi.

Ma'lumot o'rnida, “Besh tashabbus olimpiadasi”ning uchinchi hududiy va respublika bosqichlari noyabr oyida bo'lib o'tadi.

Baxtiyor OMONTURDIYEV,
Sport o'yinlari kafedrasini mudiri,
professor.

16-noyabr – Xalqaro bag'rikenglik kuni

TerDuda sana munosabati bilan “Biz bir mamlakatda yashayotgan yagona xalqmiz”, “Diniy ma'rifat va millatlararo bag'rikenglik - jamiyat barqarorligi sharti” mavzularida ilmiy-amaliy va ma'rifiy tadbir tashkil etildi

Unda ishtirok etgan madaniy markazlar mas'ullari, universitetning professor-o'qituvchilari “Millatlararo totuvlik va bag'rikenglik — umrboqiy qadriyatlar” mavzusida ma'ruzalar qilishdi. Shuningdek, turli millatga mansub talabalar tomonidan sahna ko'rinishlari namoyish etildi.



AMUDARYO BO‘YIDAN NIDO

yoxud Adib Sobir Termiziy hayot va merosiga bir nazar

Qadimda Termiz va Chag‘oniyon nomi bilan mashhur bo‘lgan bugungi Surxondaryo hududi azaldan ilm-ma‘rifat maskani bo‘lib kelgani barchamizga ma‘lum. Bu zaminda Abu Iso Termiziy, Hakim-at Termiziy, Abu Bakr Varroq Termiziy, shoir va yozuvchi Munjik Termiziy, Adib Sobir Termiziy, Tohir Chag‘oniy, Abulmuzaffar Chag‘oniy, Burhoniddin Muhaqqiq Termiziy, Xoja Samandariy Termiziy kabi buyuk allomalar yashab o‘tgan. Shuningdek Termiziy va Chag‘oniy nisbalari bilan tanilgan va o‘zlarining buyuk merosi bilan shuhrat qozongan va shu vohada yashab ijod qilganlardan yuzlab kishilarni misol keltirish mumkin.

Dunyo musulmonlari orasida, ayniqsa, xorij mamlakatlarida Makkai Mukarrama va Madinai Munavvarani ziyorat qilmoqchi bo‘lsangiz, eng avvalo, Abu Iso Termiziy va Hakim Termiziylar kabi buyuk alloma va mutasavviflar dafn etilgan qadimgi Termizni ziyorat qilganmisiz deb bejiz aytmaydilar. Zero buyuk ajdodlarimiz diniy va dunyoviy ilmlar rivojiga beqiyos hissa qo‘shganligi bilan buyuklar e‘tirofiga sazovor bo‘lgan.

Tarixga nazar tashlasak, ularning har biri o‘zining bebaho asarlari bilan ilm-fan olamida munosib ekanliklariga guvoh bo‘lamiz. Yurtdoshimiz Mirzo Kenjabekning “Buyuk Termiziylar” asarida Termiz va Chag‘oniy hududida yashab o‘tgan to‘qsonga yaqin aziz avliyolar, ulamo va fuzalolar, allomalar haqida ma‘lumot berilgan.

Har yil oktabr oyida iste‘dodli shoir Adib Sobir Termiziy xotirasiga bag‘ishlab adabiy badiiy kecha o‘tkazamiz. Bu yil shoir tavalludiga 946 yil to‘ldi. Shu munosabat bilan gazetonlar hukmiga quyidagi maqolani havola etmoqdamiz.

Adib Sobir Termiziyning sharq adabiyoti tarixidagi yuksak mavqe va shuhratini o‘tmishdagi ko‘plab adiblar, mashhur sharqshunoslar, xorij mamlakatlaridagi olimlar mehr va muhabbat bilan ta’kidlaganlar.

Darhaqiqat, Adib Sobir Termiziy adabiyot tarixi va madaniyatida munosib mavqega ega bo‘lgan, o‘z ijodi bilan xalqning ijtimoiy-estetik tafakkuri rivojida ijobiy rol va ta’sir ko‘rsatgan shoirlardan biridir.

Eronlik taniqli olim Said Nafisiy Adib Sobir Termiziy hayoti va ijodiga bag‘ishlangan maxsus maqolasida uning fors-tojik adabiyoti tarixidagi maqomi va nufuzini sinchiklab o‘rganib, belgilab bergan: “Fors tilida so‘zlashuvchi mamlakatlarda paydo bo‘lgan yuzlab shoirlar orasidan ularning barchasi xalqlar madaniyatiga qo‘shgan hissalari bilan shon-sharafga loyiqdirlar. Ayniqsa Adib Sobir Termiziy tamaddun olamida Firdavsiy, Xayyom, Sa‘diy va Hofizlarning shuhratiga yetib bormagan bo‘lsa-da, ammo u qadimgi sivilizatsiya tarixida va adabiyot ahli va adabiy doiralari yetakchi mavqega ega. Fors adabiyotini biladigan xorijlik olimlar unga munosib baho berganlar” deya ta’kidlagan.

Tadqiqotchilar Adib Sobirning 1078-yili Termiz shahrida tug‘ilganini qayd etgan. Uning bolalik davri Termizda o‘tgan. U bir muddat Nishopurda yashagan. Hayotining o‘smirlik chog‘i tinch va xotirjam bo‘lgan. Ammo biroz vaqt o‘tgach, u nohaq tuhmat tufayli xizmatdan chetlashtirgan va Rovani degan joyga surgun qilingan.

Keyinchalik, Adib Sobirning umri Saljuqiylar sultoni Sulton Sanjar saroyida o‘tadi, uning poytaxti o‘sha davrning ma‘rifat maskani bo‘lgan shahar – Marv edi. Qisqa vaqt ichida u saroy shoirlari orasida ayniqsa, Sulton huzuridagi suhbatlarda o‘zining zukkoligi bilan obro‘-e‘tibor topib, saroy shoiri sifatida alohida mavqega ega bo‘ldi. Shuningdek, dono inson, oqil siyosatchi sifatida tanildi.

Adib Sobir rasmiy elchi sifatida o‘z vazifasini yaxshi bajarib, ushbu yo‘lda o‘zining iste‘dodini ko‘rsatadi. U Xorazm hukmdori Otsiz fitnalarining

oldini oladi va Xorazm bilan Marv o‘rtasida o‘ziga xos barqaror munosabatlarni o‘rnatadi. Bu holat besh yil davom etadi.

Keyinchalik Adib Sobir umrining ko‘p kunlarini og‘ir ruhiy iztiroblarda o‘tkazadi. Shu sabab Xorazmni tark etmoqchi bo‘lsa ham iloj topolmaydi. Ko‘p o‘tmay hukmdor Otsizning odamlari uni tutib, mol-mulkini talon-taroj qilishadi.

Erkin fikrli, davlat elchisi bo‘lgan shoir 1147-yilning oktabr kechalarining birida qo‘l-oyoqlari bog‘langan holda cheksiz azob va qiynoqlarga solingan holda Xorazm zaminida Amudaryoga cho‘ktirib o‘ldiriladi.

Adib Sobirning adabiy merosi she’riy devondan iborat. Uning devoni qasida, g‘azal, tarkibband, qit‘a va ruboiylardan iborat bo‘lib, shoirning lirik qahramonlari hayotning ne‘matlarini sevuvchi insonlardir.

Tui, ki mehri tu dar Mehrgon bahori man ast,
Ki chehrai tu gulistonu lolazori man ast.
Bahoru sarvu gulu savsan, ey bahori buton,
Chu dar kanori mani, jumla dar kanori man ast.

Erkin tarjima:

Mehrijonda mehrim bahorim sen,
Sening yuzing gulim va lolazorim.
Bahor-u sarv, gul-u savsanlar, ey buton bahori,
Agar sen yonimdasan barchasi, mening yonimda.

Adib Sobir Termiziy nafis va shirinso‘z shoir sifatida hamisha ezgu fikrlar bilan mazmunli, shirali so‘zning tarafdori bo‘lgan. U o‘z ijodida so‘zning tiniqligi, soddaligi, g‘oyasining baland va ravon mazmunga egaligiga alohida to‘xtalib o‘tib, so‘zning sehri va qudratiga e‘tibor bergan, boshqalarni ham shunga da‘vat etgan.

Ey, on, ki obro‘y hamejo‘y az suxan,
Ohangi guftani suxani obdor kun.

Bayt mazmuni: So‘zingiz sehridan obro‘ izlamoqchi bo‘lsangiz, Suvli so‘z (ma’noli so‘z) ohangida so‘zlang.

Adib Sobir Termiziy merosining ana shu xususiyatlariga tazkiranavislar ham ishora qilib o‘tganlar. Davlatshoh Samarqandiy shunday yozgan edi: “Sobir she’riyati va shoiriligida haq gapi shuki xushbayon shoir, xalq va zamondoshlariga yaqindir”.

Abdurahmon Jomiy ham uning she’rlariga baland baho berib “latofatga, nafosatga va jozibaga” to‘la ekanligini ta’kidlagan.

Said Nafisiy Adib Sobir Termiziyga bag‘ishlangan maqolasida shunday yozadi: “Adib Sobir Termiziy shoirlarning ulug‘laridan biri, Ro‘dakiy, Daqiqiy va Farruxiydan keyin Turkiston shuaroisida Sobirdan oldinroq o‘tadigan hech kim yo‘q”, deb ta’kidlagan.

Adib Sobir Termiziy yangi tasvirlar, ravonfikrlilik, his-tuyg‘ular borasida Xuroson uslubi an‘analarini, ayniqsa, Ro‘dakiy an‘analarini eng yaxshi davomchilaridan edi. O‘z o‘rinda o‘zini Ro‘dakiyning hamkasbi, fikrdoshi deb bilib, g‘urur bilan aytgan:

Zabonu tab‘i Muizziyu Ro‘dakist maro,
Sanoi davlati Saljuku oli Somonro.

Tarjimasi:

Muizziy Ro‘dakiylarning tili va tabi mendadir,
Mendadir Saljuqiyy va Somoniylar davlatining madhi.

Ro‘dakiyning “Bo‘yi juyi Muliyon oyad hame” qasidasiga naziralar bitgan ko‘plab shoirlarni bilamiz. Adib Sobir Termiziy boshqa zamondoshlariga qaraganda muvaffaqiyatli tatabbu



yo‘zgan shoirlardandir. Xuroson uslubining davomchilari: Firdavsiy, Daqiqiy, Anvariyy, Unsuriy, Farruxiy, Munjik Termiziy va boshqalarga ham hurmati baland bo‘lib, o‘z she’rlarida ularni ehtirom bilan tilga olgan.

Adib Sobirning kiril yozuvidagi she’rlar to‘plami ikki marta nashr etilgan. Ilk marta 1965-yilda, ikkinchisi 1983-yilda Dushanbe shahrida nashr qilingan. Bu ikki nashrni amalga oshirishda professor Ahmad Abdullayevning xizmatlari katta.

Ko‘plab tazkiranavislarining aytishiga qaraganda va Ahmad Abdullayevning batafsil tadqiqotlariga ko‘ra, Adib Sobirning ko‘plab asarlari mavjudligi, katta devon sohibi ekanligi ma‘lumdir. Biroq, uning asarlari bizgacha to‘liq yetib kelmagan, nusxalari ham kam uchraydi.

Professor Ahmad Abdullayev o‘tgan asrning 60-yillarida Angliya kutubxonalaridan shoir devonining ikki qo‘lyozma nusxasini olishga muvaffaq bo‘lgan. Bugungi kunda bu devonlardan biri Britaniyaning India Offisi kutubxonasida, ikkinchisi esa shu mamlakatning mashhur Davlat muzeyida saqlanmoqda. Boku qo‘lyozmalar fondida Adib Sobir devonining qo‘lyozma nusxasi mavjud. Shuningdek, shoir devonining bir nusxasi Tojikiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida (Starikov fondida) saqlanadi.

Bu to‘rt nusxaning eng qadimiy nusxasi Angliyaning India Offisi kutubxonasida saqlanayotgan bo‘lib, hijriy 714-yil Muharram oyining yettinchi kuni (milodiy 1314-yil 16-may)da yozilgan qo‘lyozmasidir.

Yillar davomida to‘rtta qo‘lyozma va bosma nusxalarini solishtirish natijasida professor Ahmad Abdullayev tomonidan Adib Sobir Termiziyning devonini to‘liq ilmiy-tanqidiy matni tayyorlandi. Ko‘pgina allomalarning o‘rganish va izlanishlari natijasida olingan yangi she’rlar ham mazkur to‘plamga kiritilgan. Bu kitobning tarkibida 126 qasida va boshqa she’riy janrlardan 7 mingf 45 baytga yaqindir.

Adib Sobir Termiziy adabiy merosining ilmiy tanqidiy matni professor Ahmad Abdullayev tomonidan 1982-yilda Dushanbeda va 1380 hij. (2000 mil.) Tehronda nashr etilgan.

Xulosa o‘rnida, buyuk Firdavsiyning bashoratnamo so‘zlarini eslatib o‘tish joiz. Bu so‘zlar, nazarimizda, Adib Sobir Termiziy ijodiga ham tegishlidir.

Namiram az in pas ki man zindaam
Ki tuxmi suxanro parokandaam

Erkin tarjima:

Men o‘lmasman, abadiy tirikman,
Zero so‘z urug‘ini sochgandurman.

Ramazon ABDULLAYEV,
Tojik filologiyasi va sharq
tillari kafedrasida dotsenti.

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

ASAR QAHRAMONLARI HAQIDA

Ushbu sahna asari tarixiy voqea asosida yozildi. Bu voqea (1860-1880) G'uzor bekligiga qarashli Dehqonodobning Yetimquduq qishlog'ida yashovchi Adolboy xonadonida bo'lib o'tadi. Adolboy o'n to'qqiz yoshli o'g'li Abdullani G'uzor bekligida tanilgan Mamatalimboyning Guloyim ismli qiziga 350 bosh qo'y, ho'kiz, bir tuya, zeb-ziynatlar qalin berib uylantiradi. Afsuski, Allohning amri bilan kuyov Abdulla qirq kun o'tar-o'tmas bandalikni bajo keltiradi. Kelin Guloyimning qirqi ham chiqmay kelinlik baxti, taxti ravonida o'tovida tul bo'lib qoladi.

Kelin Guloyim Abdullaning ruhini chirqiratmayman deb Adolboyning xonadonida otasinikiga ketmay yashab qoladi. Qaynota-qaynonasi otasinikiga ketishga ruxsat bersa ham "Abdulla go'rda chirisa, men shu xonadonda chiriyman" deb javob qiladi. Oqibatda Adolboy kampiri Kumush bilan maslahatlashib, beva kelini Guloyimni o'n yetti yoshli kenja o'g'li Safarga kelin qilishni ma'qul ko'radi.

Sahna asari shu epizod bilan boshlanadi.

Safar baxshining avlodlari ushbu kunlarda Surxondaryo viloyatining Muzrabot tumanida yashab kelishmoqda. Safar baxshining o'g'li – Umir baxshi O'zbekiston, Tojikiston, Turkmaniston Respublikalariga tanilgan baxshi. Undan o'nlab dostonlar Respublika folklorshunos olimlar tomonidan yozib olinib, nashr etilgan. Umir baxshining farzandlari: Suvon baxshi, Panji baxshi; Qora baxshi Umirov va Chori baxshi Umirov – O'zbekiston xalq baxshilari; nevarasi Rasul baxshi Umirov – O'zbekiston xalq baxshisi. Shuningdek, nevaralari Abduqahhor baxshi, Jovli baxshi va chevaralaridan ham o'nga yaqini ota-bobolari izidan borib, el-u xalq ko'nglini xushlab kelishmoqda. Folklorshunos olimlar tomonidan Safar baxshi avlodlaridan o'ttizga yaqin dostonlar yozib olingan va yozib olinmoqda.

Asar qahramonlari

1. Safar – Adolboyning o'g'li.
2. Guloyim – Rahimboyning qizi– – Qishloqning chiroyli qizi Adolboyning kelini.
3. Adolboy – Abdullaning otasi.
4. Kumush – Safarning onasi.
5. Alim Jebachi – Adolboyning hamqishlog'i. Pixini yorgan, ilon yog'ini yalagan, bir ko'zi qisiq, ko'sa.
6. Sherna baxshi – Safar baxshining ustози. Sherobod baxshichilik maktabining asoschisi.
7. Muzaffarxon – Sherobod begi.
8. Bobojon – Sherobod begi jebachisi.
9. Mo'lla Isomiddin – Sherobod qozisi.
10. O'ndan ziyod Sherobod baxshichilik maktabi vakillari.

1-ko'rinish

(Olatov qishlog'i uzra gul-rayhonlar atir hidlarini taratgan. Olam o'z sehrli sirlarini faqat shu qishloqqa in'om etgandek. Navro'zi olamning ilk kunlari. Qizlar boshida tol bargaklar, sevishganlar, bir-biriga non sindirganlar, fотиha qilganlarning yigitlari o'z sevgililariga kalla qandlar, meva-chevalar otish marosimlari, hayittlash ulug' ayyom kunlari.

Adolboy xonadonida kechasi bilan eri-xotin gurgungi uzoq davom etdi. Tushlarga yaqin Adolboy o'g'li Safarga yorildi):

Adolboy. Sapa! O'g'lim, sen Guloyim chechangga uylanasan.

Safar. Ya, ota o'ylab gapiryapsizma? Checham-ku?

Adolboy. Ha, endi chechang emas ulim, Abdulla akang yo'q, o'lgan u.

Safar. Yo'q ota! Akamning ruhini chirqiratmayman. Akam yotgan to'shakda checham bilan yotmayman.

Adolboy. Yotasan! "Yotmaysan-a, yotasan, er-xotin ham bo'lasan! Ruhini chirqiratishni sen bilib qoldingma? Men tiri ekanman, yotasan! Bevamizni begonaga berib qo'ymaymiz. Bevani begonaga berish or-oriyat-ku! Bilsang, isnod ham! Bu sha'nimiz va nomusimizni saqlash! Buni men o'ylab topdimmi? Ko'z yoshlaring meni erita olmaydi. Sen men uchun o'g'ilsan! Baxshiliging o'zingga. Agar aytganimni qilmasang, o'lsam, go'rimda tik turaman! Bilasan, Abdulla akang chechang bilan bor-yo'g'i qirq kun ham yashamadi. Akangning umrini xudo qisqa qilgan ekan. Mana, yilini ham o'tkazdik. Chechangning bo'yida bo'lmagan ekan. Undan bir tirnoq ham qolmadi. Olloh shu ko'rgiliklarni ravo ko'rgan ekan. Na chora.

BAXSHI



Safar. (o'z-o'ziga Ey Ollohim! Akamning to'shagida chechamni og'ushimga olib, qandaylar erkalab yotaman. Bu azob-uqubat. Bu ko'rgilikka qanday chidayman? Chechamning yoshi mendan katta bo'lsa! Hali dil yarasi bitmagan). Ota, o'ylab olishga muhlat bering!

Adolboy. Muhlat-puhlat yo'q, ulim! Men otang bo'lsam, kir o'tovga! Mo'lla kelgan, nikoh o'qib qo'yadi.

Safar. A! Mo'lla kelgan?

Adolboy. Ha, mo'lla kelgan.

Safar. O'tovga kirolmayman, ota! Qaysi betim bilan chechamni "Tan mahramligimga olaman, roziman" deyman. Yoshim o'n yettida bo'lsa, mening ham yigittlik g'ururim bor.

Adolboy. Nima? G'ururing! Yo'g'e! O'n yettidasan! Men bilmapman-da, ulim. Nima erkaklik amalini qilolmaysanmi?

Safar. Erkaklik amali, chechaga emas-ku, ota!

Adolboy. Nima? Menga qara! Sen g'ururli bo'lib qoldingmi? Bu Ollohning ishi! Akangning o'lgani kamilik qildima? Yana biz o'lik ko'mib, aza ochib, boshimizdan oq tushmaydima? Ohay, ol o'lingni o'tovga olib kir. Mo'lla urf-odatini qilsin. (Mo'lla Safar va Guloyimga nikoh o'qidi. Roziligini oldi).

Safar. (Safar bir chetga qarab) Yo, Ollohim. Yo, alhazar. Akamning ruhi-chi? – yo'q, yo'q! Nimalar deyapman. Akamning ruhi meni kechirmaydi. Qanday kunlarga qolding, Safar! Uylanmasam ota-enamlar, el-u ulus oldida kim degan odam bo'laman. Ular ham sharmanda-yu, sharmisor bo'lishadi. Dahshat! Qayerdan ham ota-bobolarimizdan "Bevasini begonaga bermaslik" urf odati qolgan. Nima qilay! Qanday yo'l tanlay? Yo, falak! O'n yetti yoshimda tug'ishgan akamning yori, bevasi bilan bir to'shakda yotsam. Yo or-oriyat deb dunyo bilan vidolashaymikan? Yo ota-enamni deb akamning bevasiga uylanib, qo'ya qolsammikan?

Chechamning o'ziyam naq uzukning ko'zi-da. Sohijbamolligi oyni uyaltiradi-ya? Qoshlari, kulgichlari-chi, ko'rganni gado qiladi. Uning ustiga qaynota, qaynona, qayin, qayinsingillarga mehribonchiligi? Ha, boyning qizi-da. Shuning uchun ham otam Rahimboy bilan tirashib bir suruv qo'y, bir tuya, bir ot berib yangamni kelin qilgan edi. Afsuski, Abdulla akamga nasib qilmadi. Akasiga nasib qilmagan ukasiga nasib qilarmikan?

Ey, lovullab turgan olov, mayli, meni yondir! O'n yetti yoshimda ikki o't orasida qoldim. Olovlarimga chirmashib yonay. Kul bo'lay, bu fojia, dahshatidan qutulay! E,

Ollohim! O'zing yo'l ko'rsat! Qani edi, baqirib-baqirib yig'lasam, yuragim bo'sharmidi.

(Safar kechqurun yotar vaqti o'tov bo'sag'asiga kelib, o'z-o'ziga). Oyoqlarim nega qaltirayapsan? Kelin yoniga kirishga madoring yo'q. Sen eding-ku, ne bir men degan polvonlarning belidan tuya chil solib, charxi palak qilib chikka tashlagan. O'tov bo'sag'asiga ikki qadam qolgandagi ahvolingni qara-yu. Bu ahvoldingdan fig'onim falakka chiqayapti.

"Tavakalning boshi kal" degan. Kirsam kirganim bo'lsin. Yo kuyov bo'lib, yo qayin bo'lib qolaman. Mayli, o'ng oyoqdan bo'sag'adan ichkariga kiray. Mana, o'ng oyog'im. Bismillo, Yo tavba! Ichkariga chimildiq tutilgan-ku. Chimildiqqacha yana

ikki qadam qoldi. Dadil bo'l, oyoqlarim! Mayli, chimildiqni ko'tarib, ichkariga kiray, checham meni qanday kutib olarkan? Shunga qarab ish tutaman. Bor-e, kirsam kirganim bo'lsin. (Safar chimildiq ichiga kiradi).

Guloyim. (qaltiroq ovozda). Ha qaynim, keling.

Safar. (O'yga tolib) Ha, keldim. (O'z-o'ziga) Nima dey, chechami, yo... Qarang, joy ikki kishiga solingan. Chechamning qo'ng'iroqdek ovozidan nom-nishon ham yo'q. Dunyoda bunday qaltiroq, bo'g'iq, siniq va hijolatomuz ovoz bo'lmasa kerak-ov.

Guloyim. (Guloyim o'z-o'ziga: "Oh, yana yangi yor, kirsam qo'ynimga. O'z qaynim olsa meni og'ushiga! Oh, naqadar dahshat nomahram, qo'l ursa tikon kabi siynayi to'shimga. O'n sakkiz yil avaylab-asragan muhabbat bog'ining ifori hidlari, Abdulla bilan menga bo'lmadi nasib. Nahot, qaynim muhabbat bog'imizning imoratlarini vayrona qilsa. Bu vayrona kulbada umrguzaronlik o'tkazsa?") O'tiring.

Safar. (Safar bir zum o'yga toladi). Shayton, iblis, sen meni yo'ldan ozdirma! Yotib olsam, yonimda yor. Agar yor yo'lini tanlasam, erta-indin taqdirga tan berib, menga rozilik beradi. Farzandli ham bo'lamiz. Yanayam rozi bo'lmasa-chi? Keyin kim bo'laman.

Bir tomonda akamning ruhi, ikkinchi tarafda ota-enam oldidagi farzandlik burchim, oilamiz sha'ni, g'ururi, or-oriyati, udumlari, uchinchisi yonda checha-qayinlik yo'lda ko'ndalang turlibdi. Qay birini tanlay. Mayli, men uchun solingan o'rin bo'sh qolsin. Safar! Akangdan qolgan muhabbatni davom ettirishdan ko'ra o'lganing yaxshi!

Guloyim. (Guloyim yana xayollar og'ushida). "O! Taqdir-a! Nahot, meni o'n sakkiz yoshimda dahshat oloviga tashlaganing kammidi? Yana qaynim bilan bir to'shakda bir yostiqa bosh qo'ysam, yo'q, Abdullaning ruhini chirqirib, qaynimga yor bo'lmayman. Mumkin emas, Axir, nima dey, o'ringa kiring, kuyov deymi? Yo'q. Oldimda uch yo'l: ota-enam uyiga qaytish, yo qaynimga o'ringa kiring deyish, Yo.... xullas Guloyim dadil bo'!! Bo'sh kelma!

Safar. Checha!

Guloyim. Ha, qaynim, nima deysiz?

Safar. Men keldim.

Guloyim. Yaxshi. O'tiring, qaynim. Biz bugundan boshlab mo'llaning o'qigan nikohiga amal qilsak, er-xotinmiz. Siz nima deysiz?

Safar. (Safar jim. Anchadan keyin). Nima dey? Checha o'ylab ham ko'rmadim. Xo'p desam, kelajak avlodlarimiz nima bo'ladi. Ular isnodga qoladi. Farzandlarimizga "checha-qayinlarning bolalari" degan ta'na toshlari yog'iladi.

Guloyim. Ha, qaynim, men ham shu yo'lni tanlab qo'rganman. Men siz bilan xudo bergan umr davomida checha-qayin bo'lib qolamiz.

Safar. Aytganingizday bo'lib qoladi. Sizni

xafa qilib qo'yaman deb hech narsa demadim. Meni siz bilan akam yotgan to'shakda birga yotishdan Xudoning o'zi asrasin.

Guloyim. Menga akangiz vasiyat qilmagan bo'lsa-da, sevgi-muhabbatiga sodiq qolaman, qarorim qat'iy, turmush qurmaslik.

Safar. Yo'q, checha. Unday qilmang! Taqdirga tan bering. Yillar o'tib, turmush quring. Farzandlar ko'ring, voyaga yetkazing. Huzurini ko'ring.

Guloyim. Yo'q, qaynim, har kecha ming fig'on-faryod chekaman. Tun yig'laydi. Tunga qo'shilib men ham yig'layman.

Rahmat qaynim. Endi taqdirimga tan berib, Abdullaga sodiq qolaman. Sadoqat bog'ida gulday ochilib yashayman!

Safar. Ha, checha! Nasib bo'lsa men tong yorishmay Amudaryo sohillari tomon yo'l olaman. Ota yurtim, ona qishlog'im Yetimquduqni tark etaman. Qachonlardir tug'ilib-o'sgan G'uzor bekligi Yetimquduq qishlog'imga mehmon bo'lib kelarman. Bu faqat Ollohga ayon.

Guloyim. (Sinov ohangida) Qaynim balki men sizning joningizga jabr qilayotgandirman. Yo rozi bo'laymi?

Safar. Yo'q checha! Bu mening qarorim. Olloh faqat madadkor bo'lsa bas!

Guloyim. Qaynim Amu sohillariga borsangiz, Jarqo'rg'on muzofoti Kakoydi qishlog'ida onangizning singlisining o'g'li Abdulla ismli bo'langiz bor. Yo'qlab boring, bizning salomlarimizni yetkazing?

Qaynim, men hech ham o'n sakkiz yoshimda tul qoldim, yo qayta er qilmadim, deb afsus chekmayman. Qirq kun baxt va muhabbat bog'ida Abdulla bilan yashab-yashnab, sayr-sayohat qilgan kunlarim bir umrga tatiydi. Endi men achchiq qismatimni qarg'ab o'taman. Taqdirimga tan beraman. Xudo bergan kuni yashayman. O'zga muhabbat, o'zga yor quchog'iga o'zimni topshirmayman!

Qaynim, sizga umrsherik bir narsa berib yuboraman. Uni siz akangiz Abdulla va chechangiz Guloyimdan yodgorlik deb saqlagaysiz. Hamda uni kelajak avlodlaringiz qo'ldan qo'lga o'tkazib yursin. Bu bobo meros-yodgorlik do'mbira. Bu yodgorlik meros xalqimizga ko'plab baxshilar yetkazib beradi. Qaynim men sizdan mingdan ming roziman.

Safar. Checha! Men ketdim! Turing, checha! Quchoqlashib ko'rishaylik. Bir-birimizdan checha-qayinlik hidlari jismimizda anqib tursin. Xayr, checha! Xayr! Omon bo'ling!

Guloyim. Qaynim, mana bu nonni ham belingizga tugib oling. Yo'lda yo'dosh bo'ladi. Xayr baxshi, polvon qaynim! Omon bo'ling! Sizga oq yo'!! Amu sohillari qaynimga quchoq oching! Omin, Olloh o'zi madadkor bo'lsin!

(Quyosh tayoq bo'yi ko'tarilganda Safar qishlog'idan chiqib oldi va ko'zlaridan yosh tizilib, o'pkasi to'lib do'mbirani qo'lga olib alvido otajonim, alvido onajonim, ona qishlog'im, yor-u birodarlarim deb bir terma aytdi).

Mard jigitning bo'lar nomusi, ham ori, O'z chechamni bugun qaytib quchaman. Bu dunyoning ko'p ekan-da sirlari, O'z elimdan ketar bo'ldim checha-ya. Xush qol deyman akamni suyg'an yori, Bu dunyodan qonlar jutur bo'ldim men. Bu dunyodan naylay battar bo'ldim men, To ko'rguncha xush qol deyman chechajon. O'z elimdan ketar bo'ldim chechajon. Shoirlarday gapni gapga pichaman, Gangib qoldi naylay aziz boshlarim. Akam desam to'kiladi yoshlarim. Ko'rarmizmi-ko'rmaymizmi xush endi. Birga jurgan aziz qishloqdoshlarim. Daxmardalar junar ekan kuyiga, Qaytib jotay akajonim joyiga. Ketar bo'ldim endi Amu bo'yiga, Akam yori chechajonim xush endi. Do'stni ko'rsam qulochimni ochaman, Xush qolg'in-da, endi jonim chechajon.

(Davomi keyingi sonda...)

Ro'ziqul MUSTAFOQULOV,
Boshlang'ich ta'lim kafedrası
dotsenti, f.f.n., dramaturg.

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI QUIYIDAGI VAKANT (BO'SH) ISH O'RINLARI UCHUN KAFEDRA MUDIRI, PROFESSOR, DOTSENT, KATTA O'QITUVCHI, O'QITUVCHI VA O'QITUVCHI-STAJYOR LAVOZIMLARIGA TANLOV E'LON QILADI:

Kafedra mudiri:

1. Matematik analiz
2. Ekologiya va tuproqshunoslik
3. Davlat va huquq asoslari
4. Jinoyat huquqi va fuqarolik

prosessi

5. Arxeologiya
6. Pedagogika va ijtimoiy fanlar
7. Ingliz tili va adabiyoti
8. Rus tilshunosligi
9. Musiqa ta'limi
10. Badiiy grafika va dizayn

Kafedra mudiri lavozimini egallash uchun tanlovda fan doktori, fan nomzodi ilmiy darajasiga, professor yoki dotsent ilmiy unvoniga, shuningdek, tegishli mutaxassislik bo'yicha xorijiy mamlakatlarning falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasiga yoki unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga ega bo'lgan, biroq kamida 5 yil metodik, ilmiy-pedagogik, ijodiy va tashkiliy faoliyat tajribasiga ega bo'lgan shaxs qo'yilishi mumkin.

Kafedralarning vakant professor, dotsent, katta o'qituvchi, o'qituvchi va o'qituvchi-stajyor lavozimlariga:

Umumiy fizika: professor (1 nafar), dotsent (1 nafar), katta o'qituvchi (1 nafar), o'qituvchi (1 nafar).

Nazariy fizika: dotsent (1 nafar), katta o'qituvchi (1 nafar).

Matematik analiz: professor (1 nafar), dotsent (1 nafar), katta o'qituvchi (1 nafar), o'qituvchi (1 nafar), o'qituvchi-stajyor (1 nafar).

Algebra va geometriya: dotsent (1 nafar), katta o'qituvchi (1 nafar), o'qituvchi (1 nafar).

Botanika: dotsent (1 nafar), katta o'qituvchi (1 nafar), o'qituvchi (1 nafar), o'qituvchi-stajyor (1 nafar).

Zoologiya: professor (1 nafar), dotsent (1 nafar), katta o'qituvchi (1 nafar), o'qituvchi (1 nafar), o'qituvchi-stajyor (1 nafar).

Geografiya: dotsent (1 nafar), o'qituvchi (1 nafar).

Ekologiya va tuproqshunoslik: professor (1 nafar), o'qituvchi (1 nafar), o'qituvchi-stajyor (1 nafar).

Noorganik kimyo: dotsent (1 nafar), o'qituvchi (1 nafar), o'qituvchi-stajyor (1 nafar).

Analitik kimyo: professor (1 nafar), dotsent (1 nafar), katta o'qituvchi (1 nafar), o'qituvchi (1 nafar).

nafar), o'qituvchi-stajyor (1 nafar).

Fizikaviy kimyo: professor (1 nafar), dotsent (1 nafar), katta o'qituvchi (1 nafar), o'qituvchi (1 nafar), o'qituvchi-stajyor (1 nafar).

Organik kimyo: dotsent (1 nafar), katta o'qituvchi (1 nafar), o'qituvchi (1 nafar), o'qituvchi-stajyor (1 nafar).

Amaliy matematika: professor (1 nafar), dotsent (1 nafar), katta o'qituvchi (1 nafar).

Matematik modellash va kompyuter ilmlari: katta o'qituvchi (1 nafar), o'qituvchi (1 nafar).

Kompyuter va dasturiy injiniring: katta o'qituvchi (1 nafar), o'qituvchi (1 nafar), o'qituvchi-stajyor (1 nafar).

Iqtisodiyot: katta o'qituvchi (1 nafar), o'qituvchi (1 nafar), o'qituvchi-stajyor (1 nafar).

Moliya: dotsent (1 nafar), katta o'qituvchi (1 nafar), o'qituvchi (1 nafar), o'qituvchi-stajyor (1 nafar).

Turizm: katta o'qituvchi (1 nafar), o'qituvchi (1 nafar).

Davlat va huquq asoslari: dotsent (1 nafar), katta o'qituvchi (1 nafar), o'qituvchi (1 nafar).

Jinoyat huquqi va fuqarolik prosessi: dotsent (1 nafar), o'qituvchi (1 nafar), o'qituvchi-stajyor (1 nafar).

Falsafa: professor (1 nafar), dotsent (1 nafar), katta o'qituvchi (1 nafar), o'qituvchi (1 nafar), o'qituvchi-stajyor (1 nafar).

O'zbekiston tarixi va manbashunoslik: dotsent (1 nafar), katta o'qituvchi (1 nafar), o'qituvchi (1 nafar), o'qituvchi-stajyor (1 nafar).

Arxeologiya: dotsent (1 nafar), katta o'qituvchi (1 nafar).

Jahon tarixi: professor (1 nafar), dotsent (1 nafar), katta o'qituvchi (1 nafar), o'qituvchi (1 nafar), o'qituvchi-stajyor (1 nafar).

Pedagogika va ijtimoiy ish: dotsent (1 nafar), katta o'qituvchi (1 nafar), o'qituvchi (1 nafar).

Psixologiya: dotsent (1 nafar), katta o'qituvchi (1 nafar), o'qituvchi (1 nafar).

Ingliz tili va adabiyoti: dotsent (1 nafar), katta o'qituvchi (1 nafar), o'qituvchi (1 nafar), o'qituvchi-stajyor (1 nafar).

Ingliz tili o'qitish metodikasi: katta o'qituvchi (1 nafar), o'qituvchi (1 nafar).

Roman-german tillari: katta

o'qituvchi (1 nafar), o'qituvchi (1 nafar).

Fakultetlararo chet tillar: dotsent (1 nafar), katta o'qituvchi (1 nafar), o'qituvchi (1 nafar), o'qituvchi-stajyor (1 nafar).

Rus tilshunosligi: dotsent (1 nafar), katta o'qituvchi (1 nafar), o'qituvchi (1 nafar), o'qituvchi-stajyor (1 nafar).

Tojik filologiyasi va sharq tillari: dotsent (1 nafar), katta o'qituvchi (1 nafar), o'qituvchi (1 nafar).

Rus va jahon adabiyoti: dotsent (1 nafar), katta o'qituvchi (1 nafar).

O'zbek tilshunosligi: professor (1 nafar), dotsent (1 nafar), katta o'qituvchi (1 nafar), o'qituvchi (1 nafar), o'qituvchi-stajyor (1 nafar).

O'zbek adabiyotshunosligi: dotsent (1 nafar), katta o'qituvchi (1 nafar), o'qituvchi (1 nafar), o'qituvchi-stajyor (1 nafar).

O'zbek tili va adabiyoti: dotsent (1 nafar), katta o'qituvchi (1 nafar), o'qituvchi (1 nafar), o'qituvchi-stajyor (1 nafar).

Jismoniy tarbiya va sport o'yinlari: katta o'qituvchi (1 nafar), o'qituvchi (1 nafar).

Sport boshqaruvi: professor (1 nafar), dotsent (1 nafar), katta o'qituvchi (1 nafar), o'qituvchi (1 nafar), o'qituvchi-stajyor (1 nafar).

Musiqa ta'limi: dotsent (1 nafar), katta o'qituvchi (1 nafar), o'qituvchi (1 nafar), o'qituvchi-stajyor (1 nafar).

Badiiy grafika va dizayn: katta o'qituvchi (1 nafar), o'qituvchi (1 nafar).

Texnologik ta'lim: dotsent (1 nafar), katta o'qituvchi (1 nafar), o'qituvchi (1 nafar), o'qituvchi-stajyor (1 nafar).

Milliy libos, kashtachilik, to'qimachilik: katta o'qituvchi (1 nafar), o'qituvchi (1 nafar), o'qituvchi-stajyor (1 nafar).

Professor lavozimini egallash uchun tanlovda, qoidaga ko'ra, professor ilmiy unvoniga yoki fan doktori yoki fan doktori (Doctor of Science) ilmiy darajasiga, shuningdek, tegishli mutaxassislik bo'yicha xorij mamlakatlarining unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga ega bo'lgan shaxs ishtirok etishi mumkin.

Dotsent lavozimini egallash uchun tanlovda, qoidaga ko'ra, dotsent ilmiy unvoniga, katta ilmiy xodim yoki fan nomzodi, falsafa doktori (PhD), fan doktori yoki fan doktori (Doctor of Science) ilmiy darajasiga, shuningdek, xorij mamlakatlarining tegishli mutaxassislik bo'yicha ularga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga ega bo'lgan shaxs ishtirok etishi mumkin.

Katta o'qituvchi lavozimini egallash uchun tanlovda oliy ma'lumotga ega bo'lgan shaxs (magistr, diplomli mutaxassis), shuningdek, ilmiy daraja (shu jumladan, fan nomzodi, tegishli mutaxassislik bo'yicha xorij mamlakatlarining falsafa doktori (PhD) darajasiga yoki unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy unvonga ega bo'lgan hamda bunday darajaga va unvonga ega bo'lgan, biroq o'qituvchilik ilmiy tadqiqot va ishlab chiqarish ishlari tajribasiga ega bo'lgan shaxslar ham qatnashishi mumkin.

O'qituvchi, o'qituvchi-stajyor lavozimlarini egallash uchun tanlovda tegishli mutaxassislik bo'yicha oliy ma'lumotga ega bo'lgan shaxs (magistr, diplomli mutaxassis) qatnashishi mumkin.

Tanlovda ishtirok etish uchun quyidagi hujjatlar

- topshirilishi shart
- Rektor nomiga ariza.
- Pasport nusxasi
- Ma'lumotnoma (obyektivka)
- So'rovnoma
- Oliy ma'lumot to'g'risidagi diplomlar nusxasi.

Ilmiy daraja, ilmiy unvon, shuningdek, ilmiy ishlar va ixtirolar mavjud bo'lgan taqdirda, ularga tegishli diplomlar, attestatlar nusxalari

Ilmiy ishlar ro'yxati.

Malaka oshirganligi to'g'risidagi guvohnomalar.

IZOH: hujjatlar gazetaga e'lon berilgan kundan boshlab bir oy muddatda qabul qilinadi.

Manzil: Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy. Termiz davlat universiteti rektorati, universitet Kengashi kotibi. Telefon: 76 223-16-09.

TTJDA – OSH TARQATILDI



Termiz davlat universiteti tasarrufidagi talabalar turar joylarida qariyb 3 ming nafarga yaqin talabalar istiqomat qilib kelmoqda. Ushbu talabalar uchun universitet tomonidan osh tarqatildi. Mohir oshpazlar oltita doshqozonda osh pishirishdi.

Osh nafaqat talabalarga, qolaversa 500 nafardan ortiq ishchi-xodimlarga ham tortildi. Fayzli dasturxon atrofida

Biz, bir oilamiz!

TerDuda rektori mas'ullarga talabalar turar joylari va ijara xonadonlarida istiqomat qilayotgan talabalarning sharoitlarini o'rganib, lozim bo'lsa amaliy ko'mak berish bo'yicha ko'rsatmalar berdi.

Samimiy muloqotlarda bu kabi ezgu amallar jamoalarda hamjihatlikni mustahkamlash, talabalarni qadriyatlarimizga nisbatan hurmat ruhida tarbiyalashda katta ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlandi.

Otabek ESHQUVVATOV, Iqtisodiyot va turizm fakulteti talabasi.

Ko'rik-tanlov



"KITOB MENING DO'STIM"

Axborot resurs markazida fakultetlardan g'olib bo'lgan talabalar o'rtasida "Kitob mening do'stim" ko'rik-tanlovining universitet bosqichi bo'lib o'tdi.

Tanlov nizomiga muvofiq, Tog'ay Murodning "Yulduzlar mangu yonadi" va Ernest Xemingvayning "Chol va dengiz" asarlari bo'yicha 3 ta shart asosida tashkil etildi.

Tanlov yakunlariga ko'ra:
1-o'rin – Dildora Poyonova (O'zbek filologiyasi fakulteti talabasi).
2-o'rin – Qadriya Abdukarimova (Xorijiy filologiya fakulteti talabasi).
3-o'rin – Mohinur Musurmonova (Tarix fakulteti talabasi) g'oliblikni qo'lga kiritishdi.

Tanlov natijalariga ko'ra, yuqori o'rinlarni egallagan talabalar universitet ma'muriyati tomonidan rag'batlantirildi.

Mahbuba XUDOYBERDIYEVA, O'zbek filologiyasi fakulteti talabasi.

ONA

Ona... bu so'z shunchalik orombaxsh, insonning ruhini tinchlantiradigan, qalblarda mehr chirog'ini yoqadigan, har bir inson uchun muqaddas bo'lgan butun bir dunyodir.

Inson ulg'aygan sari beshafqat bu hayot sinovlari qalblarni larzaga solib, bosib o'tilishi mushkul bo'lgan onlarda, insonga qaytadan kuch, sabriga sabr bera oladigan yagona jonkuyar insondir. Doim farzandini oliy o'rinda ko'ruvchi, u uchun butun dunyolardan kechishga tayyor bo'lgan inson. Ko'zlarida yosh bo'la turib, ichida butun dunyolar qulasa ham, hech nima bo'lmagandek, yuzida doim tabassum bilan sizga yaxshi kayfiyat ulasha oladigan butun bir borliq. Siz uchun dunyolarga qarshi chiqadigan, sizning tinch va osuda uxlashingiz uchun butun bir borlig'idan voz kechadigan, ham ota, ham ona bo'lib, sizning qor kabi nafis, oppoq bo'lgan ko'nglingizga, chang-to'zonga to'lgan bu dunyoning bir lahzalik gardini ham qo'ndirmaslikka harakat qiladigan haqiqiy jasorat timsoli. Doim bizning ahvolimizdan xavotir oladigan, bizga yaxshilikni tilaydigan Allohning bir mo'jizasi. Hammamizga ayonki, onalarimiz belini bukmaganida, farzandlar aslo qaddini tutolmas edi. Har bir buyuk shaxslarning orqasida ham, uni har tomonlama qo'llab-quvvatlab turguvchi buyuk zot ham ona hisoblanadi. Alloh bir yaxshilikka birdan boshlab, yetti yuzgacha ajr bersa, men butun umr qilgan yaxshiliklarim uchun beriladigan ajrlarimni, onam uchun yozilishini xohlardim.

Dunyoda ulug' zot ona bo'larkan,
Sen uchun tuganmas mehri bo'larkan.
Farzand iqboli-chun bu ulug' zotning
Sabr-matonati metin bo'larkan.

Dunyoda ulug' zot ona bo'larkan,
Bu mushfiq siymoning sehri bo'larkan.
Hammasi tugasa hamki bu kalom,
Sen uchun tuganmas ma'no bo'larkan.

Madina TOSHBOYEVA,
Ijtimoiy fanlar fakulteti talabasi.



Termiz davlat universiteti men uchun “ochiq eshiklar imkoniyati” desam adashmagan bo‘laman. Abituriyentlik davridan talabalik tomon ilk qadamim mazkur oliygoh bilan bog‘liq. Biz go‘yoki, yosh niholmiz, univesitetimiz esa bog‘bon bizlarimiz undirib imkon qadar yuksaltirishga bel bog‘laydi.

O'qishga kirish uchun, avvalo, ota-onamizga so'ng ilm yo'lidagi yo'lboshchi ustozlarimizga minnatdorchilik bildiramiz. Talabalik baxtiga erishgandan so'ng bizga katta imkoniyatlar eshigi ochildi. Har nafasda turli sohada ish yuritadigan mahoratli, mehribon ustozlar bizga tahsil

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI MEN UCHUN

berishmoqda. Biz ulardan bilmaganlarimizni o'rganib, xatolarimizni to'g'rilab bormoqdamiz. Iloji boricha, bilmagan narsalarimizni so'rab o'rganish maqsadga muvofiq. Alisher Navoiy aytganlaridek: “Bilmaganni so'rab o'rgangan olim, orlanib so'ramagan o'ziga zolim”.

Shuningdek, Termiz davlat universiteti men uchun katta maqsadlar va marralar maskanidir. U yerda imkoniyatlar, sharoitlar hammasi bisyor. Bizdan esa talab qilinadigan yagona narsa ilm olishdir. Ikkinchi kurs bo'lib shuni anglab yetdimki, hali oliygohni tamomlagunga qadar menda o'rganadigan narsalar uchun fursat bor. O'zimdagi tortinchoqlik, qo'rquv degan hislarni endi yengib o'tmoqdaman. Men kelajakda sohamning yetuk mutaxassisi va olimi bo'lib yetishishni maqsad qilganman. Shunday ekan, bizga berilgan ishonch va imkoniyatdan unumli foydalanishimiz zarur. Termiz davlat universiteti men uchun ta'rifi bo'lmaydigan darajada katta imkoniyatlarni hamda o'ziga xos do'stlarni, bilimli, malakali ustozlarni berdi. Ba'zan, ustozlarga qarab turib juda ham havasim keladi chunki, ularning barchasi mehribon va ilmi. Shuningdek, ular ham bu darajaga

yetishish uchun qiyin yo'llardan, vaziyatlardan o'tib kelgan.

Inson yiqiladi, bir marta emas, ko'p yiqiladi. Ammo, yiqilganimizda o'rnimizdan turib, o'zimizni anglab, yana kurashishda davom etishimiz lozim. Zero, biz hayotga emas, hayot bizga bo'ysunsin. Shukrki, mening hayotimda yiqilsam qo'limdan tutadigan ota-onam, ustozlarim va yaqin do'stlarim bor. Qo'limdan kelmasa ham urinib ko'raman, nimaiki qiyinchilik, qo'rquv bo'lsa ham. Shunday ekan, Termiz davlat universiteti mening hayotimni tubdan o'zgarishiga sabab bo'ldi desam mubolag'a bo'lmaydi. Biron ish boshlamoqchi bo'lib turib, lekin ikkilansam, mendan maslahatlarini ayamaydigan ustozlarim bor. Har bir harakatimda universitetim, fakultetim hamda ustozlarim bor ekan, hech qanday qo'rquv, hayajon meni yenga olmaydi.

Termiz davlat universiteti – mening kelajagim.

Termiz davlat universiteti – yutuqlarim sababchisi.

Termiz davlat univesiteti – imkoniyatlar makoni.

Termiz davlat universiteti – maqsadlarim kaliti.

Sevinch MAHMUDOVA,
O'zbek filologiyasi fakulteti talabasi



Sevinch QARSHIYEVA,
O'zbek filologiyasi fakulteti talabasi



TERMIZ, SENI SOG'INDI ODAM!

Qishloqda hech tugamas ishlar,
Har kun supur, sigir sog'ishlar.
Supra-un, yagana, chopiq qilishlar,
Xayolda sentabr – ma'ruza zali.
Termiz seni sog'indim qattiq!

Kursdoshlarim yuborar xabar:

“Sog'indik Termizni”, – derlar kun sanab.

Qalbinga bitiklar qilganda ta'sir,

Go'yoki ko'changda kezaman yana.

Orzu-tilaklarim senda mujassam,

Termzim, sog'indim, seni ushbu dam.

Mayli, yozda rosa issiq bo'lsang ham,


Oraliq, imtihonlar bilan kutsang ham.

Murg'ak orzularda yagona tilak,

Yana chorla bizni o'zingga tomon.

Termiz, seni qattiq sog'indi odam!

E'zoza O'ROQOVA,
Xorijiy filologiya fakulteti talabasi.



ONAJON

Ey aziz jonimning joni-jahoni,
Ajib yuragimning so'lmas bahori.
Munisam, borlig'im, yondosh, jonajon,
Baxtinga sog' bo'ling, mudom onajon.
Sizmasmi har lahz yonimda bo'lgan?
Sizmasmi azobda qolsam, g'am chekkan?
Sizsiz bu olamda yolg'izman abad,
Dunyolardan avlo ko'riganim onam.
Farishtam, g'amxo'rim, qalbi beg'ubor,
Shirinso'z, beg'ubor jonajonimsiz.
Allohga shukurlar aytaman takror,
Yaxshiyam siz mening onajonimsiz!

ONA TILIMSAN

Ajdodlar merosi ona tilimsan,
Chamanda ochilgan so'nmas gulimsan.
Orimsan, nomusim jon-u jahonim,
O'zligim, o'zimning ona tilimsan.

Sendadir barcha xalqning ixlosi,
Jahonga yuz tutding, tillar dahosi.
Javohir-u oltindan qimmat bahosi,
Azizim, g'ururim ona tilimsan.

Onalar allasi so'zing-la go'zal,
Dunyo boyligidan sen menga afsal.
Vasfingga ne zotlar bitdi she'r-g'azal,
Olamda dovruq'li ona tilimsan.

Ta'rifing jahonga madh etgum, albat,
Ajdodlar orzusi bo'ldi ijobat.
Senga barqarordir mehr-u adolat,
Kelajaki buyuk ona tilimsan.

Nodiraman, sendan so'ylarman kalom,
O'z tilim, o'zingdan berurman salom.
Tanimda bu jonim bor ekan, ishon ,
Kechib bo'lmas gavhar, ona tilimsan.



Nodirabonu ABDUROFIYEVA,
Yuridik fakulteti talabasi.

ISSN:20199203 TERMIZ UNIVERSITETI		Gazeta Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi Surxondaryo viloyati hududiy boshqarmasi tomonidan 2018-yil 17-martda 11-004-raqam bilan qayta ro'yxatga olingan.		Mas'ul kotib: Alibek Omonturdiyev	
Gazeta oyida ikki marta chop etiladi. Tahririyat manzili: Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy. Tel.: +99893-222-20-21. Elektron manzil: termizuniversiteti@umail.uz				Navbatchi muharrir: Nasiba Xo'janova	
Bosh muharrir: Shofiyev Obid Baxtiyorovich		Hamkorimiz: Termiz davlat universiteti		Sahifalovchi: To'ra Rahmonqulov	
Muassis: «Termiz davlat universiteti nashr-matbaa markazi» MCHJ		Tahrir hay'ati: Abduqodir Toshqulov Bekpo'lat Umurqulov O'ral Xoliyovov Zarifa Annayeva Nuriddin Achilov		Bosishga topshirish vaqti – 16.00 Topshirildi – 16.00	
Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Muallif fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.		Bahosi kelishilgan narxda. Hajmi 2 bosma toboq. Qog'oz bichimi A-3. Adadi – 1000. Buyurtma №G-150			
		Bosmaxona manzili: Termiz shahri, Shukrona ko'chasi, 19-A-uy. Gazeta «Surxon tongi», «Заря Сурхана» birlashgan tahririyati bosmaxonasida chop etildi.			